

**O‘ZBEKISTONNING XORIJIY MAMLAKATLAR BILAN  
JISMONIY TARBIYA VA SPORT SOHASIDAGI HAMKORLIK  
ALOQALARINING ME‘YORIY - HUQUQIY ASOSLARI**

**B.B. Jahongirov**

O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport  
Universiteti dotsenti

**A.A. Abdullayev**

2-kurs magistranti 4  
O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada jismoniy tarbiya va sportni boshqarish vakolatli davlat organi, mahalliy davlat hokimiyati organlari, jismoniy tarbiya-sport jamoa birlashmalari jismoniy tarbiya va sport muammolari bo‘yicha xalqaro hamkorligi, chet davlatlarning tegishli tashkilotlari bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri aloqalar o‘rnatish, ular bilan jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha qo‘shma birlashmalar tuzish, birgalikdagi sport-sog‘lomlashtirish musobaqalarini, uchrashuvlarni, turnirlarni qonun hujjatlarida belgilangan tartibda o‘tkazish haqida ma’lumotlar berilgan

**Kalit so‘zlar:** davlat qonun, farmon, qaror, hujjat, jismoniy tarbiya, sport, birlashma, xalqaro hamkorlik, tashkilot, musobaqa, uchrashuv, turnir, Milliy dastur, kurash,

Mustaqillik yillarida mamlakatimizda olib borilayotgan odilona siyosat natijasida millat genofondini sog‘lomlashtirish hamda barkamol avlodni tarbiyalash vositasi bo‘lmish jismoniy tarbiya va sport tobora ommalashib bormoqda. Ushbu maqsad yo‘lida ta’lim tizimida O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi, SHunindek, Bular orasida

O‘zbekiston Respublikasining “Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida”gi qonuni katta ahamiyat kasb etadi. Ushbu qonun 28-moddadan iborat bo‘lib, 1992 yil 14 yanvarda birinchi bor qabul qilinganligi bilan ahamiyatlidir. [1]

1992 yil 14 yanvardagi “Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida”gi qonunni o‘ziga xos xususiyatlari shundan iboratki, uning 3-moddasi bevosita “Fuqarolarning jismoniy tarbiya va sport sohasidagi vazifalari”ga bag‘ishlangan. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 27 maydagi “O‘zbekistonda jismoniy tarbiya va sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi 271-sonli Qarori, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Bolalar sporti rivojlantirish Jamg‘armasini tashkil etish to‘g‘risida”gi qarori qabul qilindi. [2]

O‘zbekiston Respublikasining “Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida”gi yangi tahrirdagi qonuni 2000 yilda qabul qilindi. Bunda o‘z-o‘zidan ko‘rinib turibdiki, mamlakatimizda jismoniy tarbiya va sport sohasiga Davlat tomonidan berilayotgan katta e‘tibor va qo‘llab-quvvatlanishi dunyo mamlakatlari orasida o‘zini o‘rni va nufuzini ko‘rsatmoqda. Yangi qabul qilingan “Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida”gi qonun oldingisiga nisbatan ancha ixcham, tushunarli, keng qamrovli va boshqa jihatlardan ahamiyatli ekanligi bilan ajralib turadi. [3]

Davlatimiz rahbarining 2002 yil 24 oktabrdagi “O‘zbekiston Bolalar sportini rivojlantirish jamg‘armasini tuzish to‘g‘risida”gi va 2004 yil 29 avgustdagi “O‘zbekiston Bolalar sportini rivojlantirish jamg‘armasi faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni bolalar sportini rivojlantirishda muhim dastur bo‘lib xizmat qilib kelmoqda. Davlatimiz rahbarining 2010 yil 1 aprelda qabul qilingan “Qishloq joylardagi bolalar sporti ob‘ektlarida band bo‘lgan ayol sport ustozlari mehnatini rag‘batlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori. [4]

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013 yil 25 fevraldagi “2016 yil Rio-de-Janeyro (Braziliya)da bo‘lib o‘tadigan XXXI YOzgi Olimpiya o‘yinlari hamda XV Paralimpiya o‘yinlariga O‘zbekiston sportchilarini tayyorlash to‘g‘risida” gi PQ-1923 sonli Qarori, hamda ishlab chiqilayotgan va belgilanayotgan dasturlar va chora-

tadbirlar huquqiy asos bo‘lib xizmat qilib kelmoqda. 2015 yil 4 sentyabrda yangi “Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida”gi Qonuni qabul qilindi.[5]

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 9 martdagi “O‘zbekiston sportchilarini 2020 yilda Tokio shahrida (Yaponiya) bo‘lib o‘tadigan XXXII yozgi Olimpiya va XVI Paralimpiya o‘yinlariga tayyorlash to‘g‘risida”gi PQ-2821 sonli, 2017 yil 2 oktyabrdagi “Kurash milliy sport turini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-3306-sonli Qarori, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 martdagi “Jismoniy tarbiya va sport sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5368-son farmoniqabul qilindi. [6]

Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 7 yanvardagi “Davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari hamda mahalliy davlat hokimiyati organlari xodimlarining jismoniy tarbiya va sport bilan muntazam shug‘ullanishini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 6-sonli qarorlari, 2020 yil 3 noyabrdagi “Jismoniy tarbiya va sport sohasida kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish va ilmiy salohiyatni oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4877-sonli qarori, 2021 yil 5 noyabrdagi “Sport-ta’lim muassasalari faoliyatini 2025 yilgacha rivojlantirish dasturi to‘g‘risida”gi PQ-5280-sonli qarorlari, 2021 yil 5 noyabrdagi “2024 yil Parij shahrida (Frantsiya) bo‘lib o‘tadigan XXXIII yozgi Olimpiya va XVII Paralimpiya o‘yinlariga sportchilarimizni kompleks tayyorlash to‘g‘risida”gi PQ- 5281-sonli Qarorlari O‘zbekistonda sportni rivojlanishiga katta hissa qo‘shmoqda. [7]

Xulosa qilib aytganda, jismoniy tarbiya va sportning barcha jabhalari qamrab olinganligi sohaning huquqiy asoslari rivojlanishini belgilab berish bilan birga, yoshlarni sport bilan shug‘ullanishga faol jalb etish, bolalar sporti ob’ektlari uchun yuqori malakali, professional kadrlarni tayyorlashda muhim omil bo‘lib kelmoqda. Natijada mamlakatda zamonaviy talablarga javob beradigan ilmiy-tadqiqot faoliyatini tashkil etishning strategiyasi va uni isloh qilishning amaliy yo‘nalishi ishlab chiqilishi rivojlanishi ta’minlanmoqda. Ushbu huquqiy qarorlar va tadbirlar doirasida amalga

oshirilayotgan ilmiy tadqiqotlar natijalari asosida mutaxassislarni tayyorlashga, sohadagi muammolarni bartaraf etib borishda qo‘l kelmoqda.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

- 1.O‘zbyekiston Ryespublikasi qonun xujjatlari to‘plami, 2015y., 47-son, 595-modda. “Oliy mahorat sport maktablarini tashkil etish to‘g‘risida”gi 2438-sonli qarori. 2015 yil 23 noyabr
- 2.Jahongirov B.B. O‘zbekistonning hindiston bilan ilmiy - texnikaviy aloqalari. Academic research in educational sciences.Issn 2181-1385 volume 3, issue 5 may, 2022.-B.1059
3. Jahongirov B.B. O‘zbekistonning Yevropa mamlakatlari bilan ilmi-texnikaviy aloqalari. O‘tmishga nazar jurnali. 2021. 2-son.-B.16
4. Jahongirov B.B. O‘zbekistonning xorijiy mamlakatlar bilan ilm-fan sohasidagi hamkorlik aloqalari. Academic research in educational science. Volume 2 | special issue 2 | 2021.02; -B.987
- 5.Jahongirov B.B. O‘zbekistonning Osiyo mamlakatlari bilan ilmiy - texnikaviy aloqalari. Academic research in educational sciences, 2021.05.volume.2. Issue.5.- B.1017.
- 6.Jahongirov B.B. Mejdunarodnyye svyazi Uzbekistana v oblasti nauki. International scientific and practical conference. The time of scientific progress, Warsaw, Polsha, 05.11.2022. Session1, Part 3. – C.20.
7. Allekseev V.A. Mejdunarodnoe sportivnoe pravo. - M.: 2008 .